

## TARBIYAVIY KORREKSION FAOLIYAT ASOSIDA O'QUVCHILARNING MAFKURAVIY IMMUNITETINI SHAKLLANTIRISH

**Bozorova Muazzam Hamid qizi**

Nizomiy nomidagi TDPU "Pedagogika va psixologiya» magistratura mutaxassisligi  
1-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7393381>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada tarbiyaviy korreksion faoliyat haqidagi nazariy bilimlarga asoslangan holda, tarbiyaviy koreksion faoliyat asosida o'quvchilarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish masalalariga e'tibor qaratiladi. Shu jumladan, tarbiya borasida qator fikr-mulohazalar maqola mazmunida o'z aksini topadi.

**Kalit so'zlar:** pedagogik diagnostika, korreksion faoliyat, tarbiya, ta'lim, o'quvchi, mafkuraviy immunitet, ma'naviy barkamol inson.

## ФОРМИРОВАНИЕ ИДЕОЛОГИЧЕСКОГО ИММУНИТЕТА СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ УЧЕБНО-КОРРЕКЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

**Аннотация.** В данной статье на основе теоретических знаний об учебно-коррекционной деятельности уделяется внимание вопросам формирования идеологического иммунитета у студентов на основе учебно-коррекционной деятельности. В том числе, в содержании статьи отражен ряд взглядов на воспитание.

**Ключевые слова:** педагогический диагноз, коррекционная деятельность, воспитание, образование, учащийся, идеологический иммунитет, духовно зрелая личность.

## FORMATION OF IDEOLOGICAL IMMUNITY OF STUDENTS ON THE BASIS OF LEARNING AND CORRECTIONAL ACTIVITIES

**Abstract.** In this article, based on the theoretical knowledge of educational corrective activity, attention is paid to the issues of forming ideological immunity in students based on educational corrective activity. Including, a number of opinions on education are reflected in the content of the article.

**Keywords:** pedagogical diagnosis, correctional activity, upbringing, education, student, ideological immunity, spiritually mature person.

Bugungi kunda mamlakatda ma'nan yetuk, barkamol yosh avlodni tarbiyalash davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, bu borada kelajak bunyodkori bo'lgan yoshlar qalbi va ongiga kirish uchun turli mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurash olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek, "yosh avlodni tarbiyalash azaldan muhim va dolzarb bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda hayot haqiqatan ham hayot masalasidir".

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 28-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasida aytganlaridek, "Bizga kuch-quvvat manbai bo'lib xizmat qiladigan milliy g'oyani rivojlantirishimiz zarur". Oliy Majlisga Murojaatnomada ana shu jihatlar barchaning e'tiborini tortdi. Hozirgi jahon sivilizatsiyasida mafkuraviy tahdidlar va mafkuraviy xurujlar kuchayib borayotgan bir sharoitda mamlakat yoshlarini turli xavf-xatarlardan asrashda milliy mafkurani rivojlantirish, yoshlarda yovuz g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Ta'limning asosiy vazifasi o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish bo'lsa, tarbiya yosh avlodda jamiyatda qabul qilingan odob-axloq qoidalariga mos keladigan e'tiqodni, axloqiy malaka va ko'nikmalarni, ehtiyoj va intilishlarni tarkib toptirishdan iborat. Tarbiya bilan shug'ullanadigan har bir mutaxassis birinchi navbatda, o'z faoliyatini va unda ko'zda tutilgan maqsadni aniq tasavvur eta olishi, bu maqsadning muhimligini tushunishi lozim. Demak, qanday odamni tarbiya qilish darkor, tarbiya natijasida inson qanday bo'lishi kerak, degan savollarni avvaldan tasavvur etish bu jarayonda juda muhimdir .

Jamiyatimizning ustuvor vazifalaridan biri ham barkamol avlodni tarbiyalashdan iboratdir. Zero, ma'naviy barkamol insonlarga buyuk kelajakni yarata oladilar. Mamlakat xavfsizligini bugungi va ertangi kunini hal qiluvchi kuchi bo'lmish o'sib, unib kelayotgan yoshlarni har tomonlama mafkuraviy qurollantirishni zamonaning o'zi talab qilmoqda. Agar bu tushuncha qurollantirish emas , balki qurollanmog'i kerak deyilsa , bevosita ularni o'z holiga tashlab qo'ygan va ko'ziga " yaltirab " ko'ringan narsani o'zlashtirishga sharoit yaratilgan bo'ladi . Shunday ekan , yoshlarda turli xil yot va zararli g'oyalarga qarshi kurashish uchun mafkuraviy immunitetni yanada rivojlantirish ularni turli xil g'oyaviy va mafkuraviy tahdidlardan asrash, jamiyatda mafkuraviy immunitet hosil qilish orqali taraqqiyot qonunlarini chuqur aks ettiradigan sog'lom , barkamol avlodlarni tarbiyalab voyaga yetkazish lozim. Shundagina istiqbolda ma'naviy barkamol insonni, sog'lom avlodni tarbiyalashga erishish mumkin. Zero, ma'naviy barkamol insonlarga buyuk kelajakni yarata oladilar.

Respublikada ma'naviy-ma'rifiy ishlarning bugungi holati uzluksiz ta'lim tizimi ishtirokchilari: o'qituvchilarning o'zaro munosabatlarga kirishishi, pedagogik faoliyatni oqilona tashkil etish yo'llarini o'rganishni, umumiy o'rta ta'lim maktablari, litsey, kollej o'quvchilari, Oliy ta'lim tizimida tahsil oluvchi talabalarimng qobiliyatlari, iqtidori, bilimlarni o'zlashtirish hamda tarbiyalanganlik darajasini tashxis qilish yo'llari, vositalarim aniqlash; ta'lim-tarbiyaviy bosqichlararo uning uzviylik va uzluksizligini ta'minlaydigan metodikani yaratish, o'quv jarayonini tashkil etish hamda mazmunini boyitish zarurligini ko'rsatadi. Shakllanib borayotgan demokratik huquqiy davlatning yoshlarga nisbatan amalga oshirayotgan siyosati yigit va qizlarga o'z qobiliyat va iste'dodini yaxshiroq ro'yobga chiqarishda, yangilanish va taraqqiyot jarayonlariga faolroq qo'shilishga yordam berishdan iboratdir.

Ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri o'quvchilarga ta'lim va tarbiya sifatini oshirishdir. Nuqsonli o'quvchilar bilan Ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda esa shubhasiz, pedagogik diagnostika muhim o'rin tutadi.

Ta'lim va tarbiya yoshlar dunyoqarashi va xulq-atvorini shakllantirishning muhim jarayoni bo'lganligi sababli, ta'lim muassasasining har bir pedagogning eng ta'sirli texnologiyalarini topish va ulardan foydalanish imkoniyatlarini hisobga olish zarur. Xalqlar manfaatlarini o'zaro hurmat qilish, do'stlik va birodarlikka daxldor bo'lgan ma'naviy-ma'rifiy merosdan foydalanish, turli mavzularda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni muntazam o'tkazib borish yoshlarning mafkuraviy immunitetini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Korreksion faoliyat davomida o'quvchilarda mafkuraviy immunitetni hosil qilish yoki mavjud holatidan-da yuksakroqqa chiqarish bu jarayonda mas'ul bo'lgan har bir mutaxassis zimmasiga ulkan vazifalarni yuklaydi. Chunki odatiy o'quvchilardan farqli o'laroq, korreksion faoliyat qatnashuvchilarida mafkuraviy immunitet tushunchasini uyg'otishda murakkabliklarga duch kelish mumkin.

Ta'lim muassasalarida o'quvchilarni mafkuraviy kompetensiya asosida o'qitishning interfaol usuli o'quv jarayonida o'quvchilar va o'qituvchilarning o'zaro hamkorligini kuchaytirish orqali bilimlarni egallash va o'quvchilarning shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Masalan, interfaol usullardan foydalanishda Blum taksonomiyasi o'quvchilarning g'oyaviy kompetensiyasini shakllantirishi mumkin. Interfaol usullar juda ko'p va barchasi, har qanday progressiv metod kabi, birinchi navbatda o'qituvchidan tayyorgarlikni talab qiladi. Interfaol darsning asosiy xususiyatlarini darslar va an'anaviy darslar o'rtasidagi ba'zi farqlarni o'rganish orqali yanada yaxshilash mumkin.

Xulosa sifatida aytish kerakki, korreksion faoliyat murakkab jarayondir. Shu boisdan ham bu faoliyat mobaynida o'quvchilarda mafkuraviy immunitetni hosil qilishda muammolar yozaga kelishi mumkin. Bunday vaziyatlarda o'qituvchidan pedagogik mahorat talab etiladi. O'qituvchi pedagogik tajribasi va omahorati asosida qiyinchiliklarni yengib o'tadi va albatta, ta'lim berayotgan o'quvchilarida, ya'ni korreksion faoliyatda o'quvchilarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishga muvaffaq bo'ladi.

## REFERENCES

1. Sh.Mirziyoyev: We will continue our national development path to a new level Tashkent. 2017 504-505, pages 531-532.
2. K. Kurbaniyazova, TT Otebayev, J. Utepbergenov "Pedagogical skills: Teaching, Teaching and Building": Nukus - pages 12-13 2008.
3. I.Karimov "High spirituality is invincible force". Tashkent: "Spirituality" 2008 pages 3-10.
4. Weiner B, Theorien der Motivazion. Stuttgart: Klett ,2007.-196 p.
5. Ingenkamp Karlxayns. Pedagogichen diagnostik.-Berlin, 1991, 240 p.3.Piaje J. J. Rebyonok i yego razvitiye -Moskva: Znaniye, 2008,508 s.
6. Podlasbiy I. P. Pedagogika -M., «Vlados», 2010. 576 s
7. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. -Toshkent: O'qituvchi, 1994, 178 b.
8. Abdulla Avloniy. Muxtasari tarixi anbiyo va tarixi islom.-Toshkent: Fan, 1994, 293b.
9. Abdurauf Fitrat. Muxtasar islom tarixi.-Toshkent Fan, 1993, 172 b.
10. Abdullayeva Sh. A. Pedagogik diagnostika.-Toshkent: Fan va texnologiyalar,2010,256 b.